

HOMILADOR AYOLLARDA TISHLARIDA BO'LADIGAN O'ZGARISH SABABLARI.

Jo'rayeva Nigina Bahrom qizi, 308 guruh, stomatologiya fakulteti

Ilmiy rahbari; ass Dustova G.K.

SamDTI, Jamoat salomatligi va so'g'liqni saqlash menejmenti kafedrası

Dolzarbliqi. Barcha homilador ayollarning taxminan 80% da homiladorli paytida tishlarida o'zgarishlar yuzaga keladi. Homiladorlik paytida tish og'rig'lari, tishlarning tish ildizidan qimillab qolishlari bezota qiladi.

Maqsad. Homilador ayollarda tishlarning holatini o'rganish.

Material va metodlar. Samarqand shahar "MED EKSPERT " klinikasida 9 oy davomida 120 ta homilador ayollar ginekolog ko'rigiga kelgan. Ularda kalsiy preparatlar ichish tavsiya qilinadi. Bundan 80 nafari muntazam qabul qilib homila va o'zining organizimini to'liq kalsiy bilan ta'minlaydi. 30 nafari to'liq qabul qilmagani ko'rinib turadi. Chunki tishlarida jigarang dog'lar paydo bo'ladi. 10 nafari esa kalsiy preparatlar qabul qilmagan bo'lib chiqib, ulardan tish ildizlarida o'zgalishlar va homila rivojlanishida kechikishlar aniqlangan.

Homilador ayollarda tishlarda kelib chiqadigan turli xil o'zgarishlar stomatologlarning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. So'nggi o'n yilliklarda o'tkazilgan tekshirishlar natijalariga asoslangan holda aytish mumkinki homiladorlarda uchraydigan tishlardagi muammolar qat'yan vitaminlar yetishmovchiligi bilan bog'liq. Barcha homilador ayollarning taxminan 66% holatlarda ko'ngil aynish va gormonal o'zgarishlar yuzaga keladi. Bu o'zgarishlar haz m qilish sistemasini susaytirib, kislota oqimini buzib yuboradi. Organizmga vitaminlar yetishmasligiga sabab bo'ladi. Minerilizatsiya demirilizatsiya jarayonlari ham buzilishiga olib keladi. Ayniqsa kalsiy yetishmovchiligi tishlarga ta'sir qila boshlaydi. Homila 2 oylik bo'lgan vaqtda tish kurtaklari rivojlana boshlaydi. Bunday paytda ona organizimida qo'shimcha kalsiy va vitaminlar qabul qilinishi kerak bo'ladi. Kalsiy yetishmovchiligi tishlarning qorayib bo'shliqlar paydo bo'lishiga va sezgirligini oshirishiga sabab bo'ladi. Bu esa tishda bo'yin sohalarida og'riqqa olib keladi. Oxir oqibatda ildiz tubiga infeksiya tushib, tishlar tushadi. Hozirgi hisob kitoblar shuni ko'rsatadiki har 10 ta homilador ayollardan 8 tasida kalsiy va vitaminlar yetishmasligi kuzatiladi. Shuning uchun homilador ayollarning tishlarida kechadigan patologik jarayonlarni o'rganish va uning oldini olish chora-tadbirlarini yo'lga qo'yish hozirgi zamon stomatologlarning asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Bundan shuni aytish mumkinki homila bilan ona organizimi uzviy aloqada bo'ladi. Shu paytlarda organizmga va tishlarga vitaminlar va moddalar yetishmovchiligini oldini olish choralarini ko'rish zarur hisoblanadi. Buning uchun homiladorlikning ilk oylarida ginekolog tavsiya qilingan kalsiyli preparatlar qabul qila boshlashi tavsiya qilinadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Рузиева, Нодира Хакимовна, Х. Т. Шодиева, and Дилрабо Эркиновна Назарова. "ТЕЧЕНИЕБЕРЕМЕННОСТИ, РОДОВИПЕРИНАТАЛЬНЫЕИСХОДЫУ ПАЦИЕНТОКПРИИНФЕКЦИИМОЧЕВЫВОДЯЩЕГОТРАКТА." НАУКА XXI ВЕКА: ТЕОРИЯ, ПРАКТИКА И ПЕРСПЕКТИВЫ (2015): 266.
2. Карабекова, Балхия Артиковна. "Персонализированная медицина. Путь к эффективной и безопасной фармакотерапии." Наука, техника и образование 3 (44) (2018): 66-68.